



## **JURNALISTIK SURUSHTIRUV NIMA VA UNI QANDAY AMALGA OSHIRISH KERAK?**

***Jahonova Malika Ibodullo qizi***

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti*

*Jurnalistika yo'nalishi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jurnalistik surishtiruvning mohiyati, ahamiyati va amalga oshirish bosqichlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Surishtiruv jarayonida mavzuni tanlashdan boshlab, ma'lumot to'plash, tahlil qilish va natijalarni jamoatchilikka yetkazishgacha bo'lgan asosiy qadamlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, manbalarni himoya qilish va huquqiy masalalarga e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlangan. Ushbu maqola jurnalistlar uchun surishtiruv faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishda muhim ko'rsatmalar beradi.

**Kalit so'zlar:** Jurnalistik surishtiruv, ma'lumot to'plash, tahlil qilish, talillarni tasdiqlash, manbalarni himoya qilish, korrupsiya, ijtimoiy adolatsizlik, huquqiy masalalar, jurnalistikaning ahamiyati.

Jurnalistik surishtiruv - bu jurnalist tomonidan olib boriladigan chuqur tadqiqot va tekshiruv jarayonidir. U muayyan mavzu, voqea yoki muammoning noaniq, yashirin yoki murakkab jihatlarini ochib berishga qaratilgan. Jurnalistik surishtiruv odatda korrupsiya, qonunbuzarlik, ijtimoiy adolatsizlik, jinoyatlar yoki boshqa muhim masalalar haqida ma'lumot olish va uni jamoatchilikka taqdim etishni maqsad qiladi. Bu turdagi jurnalistikada quyidagi xususiyatlar muhim:

1. Chuqur tekshiruv: Jurnalist mavzu haqida ko'p manbalar bilan ishlaydi, hujjatlarni o'rganadi, guvohlar bilan suhbatlashadi va ko'p qirrali tahlil qiladi.
2. Haqiqatni ochish: Maqsad yashirin yoki noto'g'ri ma'lumotlarni fosh qilish va haqiqatni ochiqlash.
3. Neytral va obektiv yondashuv: Jurnalist ma'lumotni ishonchli va tarafsiz tarzda taqdim etishga harakat qiladi.



4. Ijtimoiy mas'uliyat: Bu ish jamiyat manfaati uchun qilinadi, chunki jurnalistik surishtiruv odatda katta ijtimoiy masalalarni qamrab oladi. Masalan, moliyaviy jinoyatlar, ekologik muammolar yoki davlat amaldorlarining suiiste'molliklari jurnalistik surishtiruvning odatiy mavzulari bo'lishi mumkin. Bunda jurnalist dalillarni aniqlash, ularni tasdiqlash va ma'lumotni aniq, ishonchli va ta'sirchan tarzda ommaga yetkazish ustida ishlaydi.

Jurnalistik surishtiruvga oid tadqiqotlardan birida esa "Fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy elementlaridan biri bo'lgan huquqiy madaniyati yuksak va chiqarilayotgan qonunlarga nisbatan hurmat ruhida qaraydigan insonni tarbiyalash jamiyat va davlat uchun manfaatli ekanligi, chunki jurnalistlarning huquqiy savodxonligi, huquqiy madaniyati ortib borgani sayin nafaqat, o'zining huquq va manfaatlarini anglab yetishi kuzatiladi, balki jamiyatimizni, ijtimoiy hayotimizni demokratlashtirish masalasini yanada ijobiy ravishda qaror topishini ta'minlashga urinishi mumkinligi ifodalangan. Qolaversa, jurnalistning yuksak huquqiy madaniyati demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasi ekanligi hamda huquqiy demokratik davlat barpo etishning muhim sharti fuqarolik jamiyatida kishilarning yetuk ma'naviyati, ularning huquqiy burch va mas'uliyatni anglab yetishlari tushunilishi tilga olingan. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim hamda moddiy, ma'naviy, axloqiy va boshqa mafkuraviy omillar asosida shakllanib va rivojlanib borishini e'tiborga olgan holda u fuqarolarning yetukligi va ongliligini ko'rsatuvchi me'yor ekanligi, huquqiy bilimlarga ega bo'lgan va ularni amaliyotda tadbiq eta oladigan jurnalist huquqiy bilimli va madaniyatli hisoblanishi ham bildirilgan.

Jurnalistik surishtiruv – bu jamiyat muammolari, korrupsiya, qonun buzilishi, xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilish yoki ilgari biron sababga ko'ra jamoatchilik tomonidan sir saqlanib qolgan ma'lumotni ochib beradigan material. Jurnalist ma'lum rejaga amal qilgan holdagina muvaffaqiyatli jurnalistik tekshiruv o'tkazishi mumkin. Ya'ni, jurnalistik surishtiruvni boshlashdan oldin, uni amalga oshirish bo'yicha aniq rejamiz bo'lishi kerak. Jurnalistik surishtiruv o'tkazish uchun mavzu tanlash juda muhim qadamdir. Jurnalist qonun qayerda buzilganligini va qayerda mansab



vakolatlarini suiiste'mol qilganligini bilishi kerak. Shuni unutmangki, bizning surushtiruv mavzuimiz jamiyat uchun ahamiyatiga ega bo'lishi kerak. Agar siz hech kimga qiziq bo'lmagan mavzuni o'rganmoqchi bo'lsangiz, vaqtingizni behuda ushbu mavzuga sarflamang. Bunday mavzularga kirishmaslik afzal. Jurnalist istalgan sohada jurnalistik tekshiruvlar o'tkazishi mumkin, ammo u surushtiruv maqsadi jinoyat, poraxo'rlik va qonun buzilishining aniqlash bo'lishi kerakligini yodda tutishi kerak. Masalan, jurnalist jurnalistlik surushtiruvini quyidagi sohalarda olib borishi mumkin: Siyosat, jinoyatchilik, moliya, jamiyat muammolari

Agar jurnalist siyosiy sohada surushtiruvlar o'tkazmoqchi bo'lsa, u saylovoldi tashviqotlari, partiyaviy faoliyat, davlat xizmatidagi tayinlovlar, qonunchilik va siyosatchilarning daromadlari to'g'risida surushtiruv o'tkazishi mumkin.

Agar jurnalist biror jinoyat yuzasidan surushtiruv qilishni istasa, uning jurnalistik tekshiruvlari inson huquqlari, odil sudlovning buzilishi, kontrabanda yoki odam savdosi kabi mavzularga doir bo'lishi mumkin.

Korrupsiya sxemalarini yuzaga chiqarish surushtiruv jurnalistikasining sevimli mavzularidan biridir. Ushbu sohada ishlash uchun jurnalistlar quyidagi yo'nalishlarni o'rganishlari mumkin: birinchi yo'nalish – bu davlat moliyasi: Masalan:

1. **Jamiyatdagi imtiyozlar**
2. **Davlat byudjeti**
3. **Soliq imtiyozlari**
4. **Davlat xaridlari**

Ikkinchi yo'nalish – shaxsiy boylik to'g'risida ochiq ma'lumotlar: banklar, kreditlar, korporativ moliyaviy sug'urta, investitsiya bozori ishtirokchilari ham jurnalistik surushtiruvlar uchun yaxshi mavzular bo'lishi mumkin.

Jurnalistik surushtiruvlarga yangi kirib kelganlar uchun ko'pincha ijtimoiy mavzularga oid muammolarni tadqiq qilishdan boshlash tavsiya etiladi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xizmatlar, kam ta'minlanganlar uchun imtiyozlar, davlat ijtimoiy dasturlari va boshqa sohalarda jurnalistik surushtiruvlar olib borish tavsiya etiladi.



Jurnalistik tekshiruvning yana bir talabi gipotezaning mavjudligi va uning tasdiqlanishi. Gipoteza – bu surushtiruv davomida jurnalist tomonidan tasdiqlanadigan yoki inkor etiladigan taxmin, talqin yoki bayonot. Gipoteza surushtiruv subyekti va jarayonini aniqlashtiradi. Gipoteza quyidagi savollarga javob berishi kerak: kim, nima, qanday qilib, nimaning natijasida, qonun nimaga buzilmoqda va oqibatlari qanday?

Jurnalistik surishtiruvni amalga oshirish quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Mavzuni tanlash va rejalashtirish. Muammoni aniqlash: Jurnalist jamoatchilik

uchun ahamiyatli bo'lgan muammoni tanlaydi (masalan, korrupsiya, noqonuniy faoliyat yoki ijtimoiy adolatsizlik). Maqsadni belgilash: Surishtiruvdan nimani maqsad qilayotganini aniqlaydi (haqiqatni ochish, noto'g'ri amallarni fosh qilish va boshqalar). Reja tuzish: Ish bosqichma-bosqich rejalashtiriladi, jumladan, manbalar, muddatlar va kerakli resurslar belgilanadi.

2. Ma'lumot to'plash. Manbalarni aniqlash: Ishonchli hujjatlar, arxivlar, onlayn ma'lumotlar, ochiq manbalar va yashirin manbalar topiladi. Intervyu olish: Tegishli shaxslar bilan (guvohlar, mutaxassislar, huquq-tartibot organlari va boshqalar) suhbatlar o'tkaziladi. Dalillarni tekshirish: Olingan ma'lumotlarning haqqoniyligi va aniqligini tekshirish. Bir manba asosida xulosa qilmaslik uchun ko'p manbalarga murojaat qilish muhim.

3. Tahlil qilish va dalillarni tasdiqlash. Olingan barcha ma'lumotlar tahlil qilinadi va o'zaro bog'liqliklar aniqlanadi. Hujjatlar, raqamlar va faktlarni bir-biriga mos kelishi tekshiriladi. Qarama-qarshiliklar aniqlansa, qo'shimcha ma'lumot yig'ish zarur bo'lishi mumkin.

4. Xabarni yozish va tayyorlash Strukturani yaratish: Hikoya lo'nda va tushunarli bo'lishi uchun matnni mantiqiy tartibda tashkil qilish. Dalillarni taqdim etish: Maqola yoki reportajni faktlar va dalillar bilan asoslash. Tafsilotlarni qo'shish: Surishtiruvning muhim jihatlarini diqqat markazida saqlash uchun hikoya qiziqarli va ta'sirli tarzda yoziladi.



5. Himoya choralari ko‘rish. Manbalarni himoya qilish: Xavfsizlik sabablari tufayli anonimlikni saqlash talab etiladigan hollarda manbalarni yashirish. Huquqiy masalalarni ko‘rib chiqish: Surishtiruv natijalarining qonuniy asoslarini tekshirish, suddan yoki huquqiy qarama-qarshiliklardan qochish uchun ehtiyotkorlik bilan ishlash.

6. Materialni e‘lon qilish. Surishtiruv natijalari matbuot, televideniye, radio yoki onlayn platformalarda jamoatchilikka yetkaziladi. Vizual materiallar (fotosuratlar, diagrammalar yoki videolar) orqali dalillarni kuchaytirish mumkin.

7. Jamoatchilik va javob qaytarish. Jamoatchilikning fikri va javoblarini kuzatish. Kerak bo‘lsa, yangi dalillarni qo‘shish yoki qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish. Jurnalistik surishtiruv ehtiyotkorlik, professional mahorat va katta mas‘uliyat talab qiladi, chunki bu jarayonda noto‘g‘ri yoki tekshirilmagan ma‘lumot berish katta oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Jurnalistik tadqiqotlar o‘tkazishda asosiy tavsiyalardan biri ma‘lumotlar arxivni saqlab qo‘yishdir. To‘plangan materiallar kelajakda mavzuga tezda qaytishga yordam beradi. Bundan tashqari, to‘plangan materiallardan surushtiruv qahramoni sudga murojaat qiladigan bo‘lsa, dalil sifatida foydalanish mumkin bo‘ladi.

Ehtimol, surushtiruv olib borgan jurnalist jurnalistlik tekshiruvini o‘tkazishda shunga o‘xshash muammolarga duch kelishi mumkin. Ya‘ni, jurnalistga qarshi jinoiy yoki ma‘muriy ish qo‘zg‘atilishining har doim huquqiy xavfi mavjud. Boshqa xatarlar va tahdidlar jurnalistning obro‘sig‘a, ishiga va sog‘lig‘iga yoki shaxsiy hayotiga doir bo‘lishi mumkin. Har qanday surushtiruvchi jurnalist uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni minimallashtirish uchun jurnalistik tekshiruv o‘tkazishda yuqoridagi sxemaga rioya qilishni unutmazlik kerak.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida: “Har bir inson e‘tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to‘siqsiz o‘z e‘tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat‘i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘z ichiga oladi” , — deyiladi. Mazkur masala Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda yanada aniqroq bayon etilgan. Chunki, axborotlarni bunday tartibda



izlash, olish, tarqatish boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga, davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi salomatligi kabi qonuniy muhofazadagi subyektlarga daxl qilmasligi lozim. Shu nuqtai nazardan mazkur holat Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 19-moddasida quyidagicha o'z aksini topgan: "Har bir inson o'z fikrini erkin bayon etish huquqiga ega, bu huquq... turli axborot va g'oyalarni izlash, olish va tarqatish erkinligini qamrab oladi". Ushbu moddaning 2-bandida nazarda tutilgan huquqlardan foydalanish o'z o'rnida jurnalist zimmasiga alohida majburiyat va mas'uliyat yuklaydi. Bu holat tabiiyki, ayrim cheklashlar bilan bog'liq, ya'ni,

a) shaxslarning sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish;

b) davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligi yoki ma'naviyatiga daxl qilmaslik va h.k.

Jurnalistik surishtiruv muallifdan g'oyat chuqur va har tomonlama bilim talab qiladi. Bu janrda ijod qilishda sof qalbning o'zi kifoya qilmaydi. Ularga huquqiy kafolat, axborot ta'minotida ko'mak, muharrir qo'llovi ham kerak. Senzura bekor qilinganining o'zi jurnalist uchun huquqiy kafolat bo'la olmaydi. Haqiqiy "to'rtinchi hokimiyat" bo'lish, davlat boshqaruv institutlari faoliyati, barcha darajadagi amaldorlarning korrupsion harakatiga qarshi samarali kurashish uchun jurnalistga qonunda kafolatlangan huquqlar kengaytirilishi lozim. Ikkinchidan, biron-bir tahririyatda muallifni axborot ta'minoti bilan qo'llovchi xizmat lavozimi yo'q. Surishtiruv olib borayotgan jurnalist "yakka ovchi"ga o'xshaydi. Informatsion texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyatdagi ochilish va OAV moddiy imkoniyatini uyg'unlashtirib jurnalistik surishtiruv olib borayotgan xodimni qo'llabquvvatlash vaqti keldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Watergate\\_ishi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Watergate_ishi)
2. ( Уиллмен Дж. Журналистские расследования: современные методы и техника. Пер с англ. – М.:Виоланта, 1998. – С.12.)
3. <http://www.uzbekembassy.in/jurnalistik-surishtiruvning-meyoriy> chegaralari qayerda /?lang=uz



4. Nurova Elmira “Jurnalistik surishtiruv mahorati masalalari” magistrlik dissertatsiyasi.
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
6. <https://school.cabar.asia/uz/video/gulafshon-sokieva-jurnalistik-surushtiruv-nima-va-uniqanday-amalga-oshirish-kerak/>
7. Jurnalistik surushtiruvlar uchun qo'llanmalar (Mark Li Hunter muallifligida nashr etilgan, IWPR tomonidan 2015 yilda qayta bosilgan)